

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133

“DEVONU LUG'OTIT TURK” ASARI VA TOPONIMLAR**РАБОТА «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТЮРК» И ИМЕНА****THE WORK OF "DEVONU LUG'OTIT TURK" AND NAMES****Jo'raboyeva Gulrux Solijonovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.**O'rinboyeva E'zozxon Komolovna²**²Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**Annotatsiya**

Maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llangan toponimlarning lingvistik xususiyatlari tahlil etilgan. Bizga ma'lumki, mazkur asar XI asr va undan oldingi asrlarga oid bo'lgan onomastik birliklarni, jumladan, toponimik birliklarni o'zida jamlagan qimmatli manbadir. Toponimlarning ushbu asarda izohi berilar ekan, avvalo, muallif uning qanday obyekt nomi ekanligiga ahamiyat qaratgan, joylashish o'rnini, chegarasi va qaysi urug'-qabila bu joyda yashashi haqidagi batafsil ma'lumotlarni berib o'tgan. Joyga asos solgan shaxs va uning nomi hamda toponim o'rtasidagi aloqadorlik, nomning ta'afzuzi, uning qanday o'qilishi to'g'ri ekanligi, xalq ichida toponimning yana qanday otlar bilan atalishi kabi qator fikrlar asar qimmatini yanada oshirgan. Shu bilan bir qatorda toponimika sohasi uchun ahamiyatli hisoblangan bir qancha nomlar etimologiyasining berilishi, qaysi qabilalar tomonidan toponimlarning qanday ma'nolarda ishlatilishi, bu leksema ishtirok etgan yana qanday joy nomlari mavjud ekanligini Mahmud Koshg'ariy davrining kuchli tilshunosi sifatida izohlab o'tadi. Bundan tashqari, asarda toponimlar tarkibida qatnashadigan bir qancha geografik atamalar ham ma'nolari izohlangan bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda eskirgan va yana ayrimlari iste'moldan butunlay chiqib ketgan hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ularning juda ko'pchiligini hozirda mavjud tarixiy joy nomlari tarkibida saqlanib qolganini ko'rish mumkin va ayni paytda manbadagi bunday geografik terminlarni o'rganish joy nomlari tarkibini aniqlash hamda ma'nosini izohlashda ochiqchilik vazifasini bajaradi. Tom ma'noda "Devonu lug'otit turk" asari tarixiy toponimika uchun ham, qolaversa bugungi zamonaviy toponimika sohasi uchun ham juda ko'plab poyob ma'lumotlarni o'zida saqlagan turkiy xalqlarning benazir hazinasidir.

Аннотация

В статье анализируются лингвистические характеристики топонимов, использованных в произведении Махмуда Кашгари «Девону луготит тюрк». Как известно, данный труд представляет собой ценный источник, включающий ономастические единицы, в том числе топонимические, относящиеся к XI веку и более ранним векам. При пояснении топонимов в данной работе автор, прежде всего, обратил внимание на название объекта, дал подробную информацию о местоположении, границе и о том, какое племя проживало в этом месте. Ряд идей, таких как связь человека, основавшего место, с его именем и топонимом, произношение названия, как оно правильно читается, какими еще именами топоним называется в народе, увеличили ценность работы. Кроме того, Махмуд Кашгари как мощный лингвист той эпохи объясняет этимологию нескольких названий, считающихся важными для области топонимики, какие племена в каких значениях используют топонимы и какие еще топонимы входят в эту лексему. Кроме того, в работе поясняются значения ряда географических терминов, входящих в топонимы, большинство из которых на сегодняшний день устарели, а некоторые и вовсе вышли из употребления. Тем не менее, многие из них можно увидеть сохранившимися в существующих исторических топонимах, и в то же время изучение таких географических терминов в источнике служит ключом к определению состава и значения топонимов. В буквальном смысле труд «Девону Луготит Тюрк» представляет собой уникальное сокровище тюркских народов, содержащее массу уникальных сведений как для исторической топонимики, так и, тем более, для области современной топонимики.

Abstract

The article analyzes the linguistic characteristics of the toponyms used in Mahmud Koshgari's work "Devonu lug'otit turk". As we know, this work is a valuable source that includes onomastic units, including toponymic units, belonging to the 11th century and earlier centuries. When explaining the toponyms in this work, first of all, the author paid attention to the name of the object, gave detailed information about the location, border, and which tribe lived in this place. A number of ideas such as the connection between the person who founded the place and his name and toponym, the pronunciation of the name, how it is read correctly, what other names the toponym is called among the people, increased the value of the work. In addition, the etymology of several names considered important for the field of

toponymy, which tribes use toponyms in what meanings, and what other place names are involved in this lexeme are explained by Mahmud Koshgari as a powerful linguist of the era. In addition, the work explains the meanings of a number of geographical terms included in toponyms, most of which are obsolete today, and some are completely out of use. Nevertheless, many of them can be seen preserved in the existing historical place names, and at the same time, the study of such geographical terms in the source serves as a key to determining the composition and meaning of place names. Literally, the work "Devonu Lugatit Turk" is a unique treasure of the Turkic peoples, which contains a lot of unique information both for historical toponymy and, moreover, for the field of modern toponymy.

Kalit so'zlar: onomastika, toponimika, toponim, toponimik indikator, etnotoponim, antropotoponim, etnonim, etimologiya, geografik obyekt nomi, geografik termin.

Ключевые слова: ономастика, топонимия, топоним, топонимический показатель, этнотопоним, антропотопоним, этноним, этимология, название географического объекта, географический термин.

Key words: onomastics, toponymy, toponym, toponymic indicator, ethnotoponym, anthropotoponym, ethnonym, etymology, geographical object name, geographical term.

KIRISH

Onomastika fanining bir qismi bo'lgan toponimikada joy nomlari va ularning atalish qonuniyatlari o'rganiladi. Toponim so'zi yunoncha *topos* – "joy" va *onoma* – "atoqli ot" so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, u yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan barcha tabiiy-geografik va sun'iy obyektlarning atoqli otidir [1, 76-77]. Toponimlar, ya'ni joy nomlarining eng asosiy vazifasi, avvalo, nominativ (nomlash, atash), identifikatsiya (yakkalash, alohidalash), hamda differentsiatsiya (ajratish, farqlash) vazifasidir. Shunga qaramay, ular qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lganligi bois, xalq hayotidan darak beruvchi kichik bir tarix hamdir. Birgina nom asrlar osha butun boshli xalqning tili, o'tmishi, urf-odati, turmushi va kasb-koriga oid sir-asrorlarni o'zida saqlagan bo'ladiki, ushbu tugun yechilganda, mazkur xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga doir qator qimmatli ma'lumotlar oydinlasha boradi. Shunday ekan, toponimlar oddiy so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti va tarixiga oid juda ko'plab ensiklopedik bilimlarni saqlayotgan xazinadir. Masalan, ko'plab etnotoponimlar respublikaning qaysi qismida qanday urug'-qabila yashaganidan darak bersa, aksariyat nomlarda joyning relyef shakllari, qazilma boyliklari, suv manbayi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi boy ma'lumotlar aks etadi. Geografik nomlar o'zida joy va uni nomlovchi xalq haqidagi barcha kompleks bilimlarni jamlaydi. Aynan shu jihatiga ko'ra, rus olimi V.A.Nikonov ta'kidlab o'tganidek, toponimlarga tarixchilar, tilshunoslar, geograflar, etnografklar ham birdek qiziqadi hamda ularni o'z fanlari kesimida o'rganishga, izohlashga harakat qiladilar [2, 4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Toponimlarning qadimgi ildizlari, albatta, tarixiy asarlarda o'z aksini topadi. Chunonchi, keyinchalik nomlanish sabablari unutilgan yoki o'z lug'aviy ma'nosini biroz yo'qotgan joy nomlari etimologiyasi, tarkibiy tuzilishi va grammatikasini o'rganishda tarixiy manbalar alohida qimmatga ega. Jumladan, o'rta asrlar nodir yodgorligi sifatida e'tirof etiladigan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari o'zida boy onomastik, xususan, toponimik materiallarni qamrab olishi bilan xarakterlidir. Mazkur asarda tilga olingan nomlar to'g'risida I.I.Umnyakov, S.Umurzoqov, H.Hasanov, S.Qorayev, G.Roziqova kabi olimlar qator izlanishlar olib borganlar [3, 7].

Manbadagi toponimlarni tadqiq etishda lingvistik tavsiflash va tasniflash, etimologik tahlil usullaridan foydalanish, chunonchi, toponimning tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlash uchun turli tillarga oid lug'atlarga, tarixiy-etimologik manbalarga murojaat qilish ishimizning asosiy metodologiyasini tashkil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Toponimshunos olim S.Qorayevning fikriga ko'ra, "Devonu lug'otit turk" asarida jami 160 dan ortiq toponimlar tilga olingan [3, 300]. Manbadagi nomlarning asosiy qismi O'rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Ular funksional-nominativ ko'lamiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: 1) mamlakat nomlari: *Tawg'ach*, *Qarachuq*; 2) o'lka nomi: *Maveraunnahr*, *Barsag'an*; 3) viloyat nomi: *Ujg'ur*; 4) shahar nomlari: *Sitg'un*, *Tarkän*, *Ila*, *Udun*, *Xo'tan*, *Atluq*, *Shanchu*, *Qatun sini*, *Balu*, *Iki öküz*, *Sabran*, *Quz Ulush*, *Sajram*, *İspijab*, *Üzükend*, *Semizkänd*, *Tashkand*, *Shash*, *Jankand*, *Dizrujin*, *Qazvin*, *Tonkän*, *Özkänd*, *Solmi*, *Qoyu*, *Janjaliq*, *Beshbaliq*, *Janjibaliq*, *Qara jig'ach*, *Barjuq*, *Sug'naq*, *Qamaq*, *Tartuq*, *Quzordu*, *Ordukänd*, *Kösän*, *Qum*, *Mankänd*, *Ko'cha*, *Kashmir*; 5) shaharcha nomlari: *Säkirmä*, *Qujas*, *Qamlanchu*, *Barman*; 6) qishloq nomlari: *Alush*, *Azīg'*, *Abul*, *Qizil oz*, *Alg'uq*, *Jag'ma*; 7) qo'rg'on nomlari: *Chigil*, *Barxan*, *Qarg'alig'*; 8) vodiy nomi: *Qizil*; 9) jarlik

TILSHUNOSLIK

nomi: *Jalg'a*; 10) tepalik nomi: *Jafg'u*; 11) cho'qqi nomi: *Badalart*; 12) yaylov nomlari: *Toqurqa*, *Ala*, *Tarig' art tajiz*, *Tajzan tajiz*, *Jiz ew tajiz*, *Jonariq* kabi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan farqli ravishda asarda qo'llangan toponimlarning barchasini ham aniq qanday obyekt nomi ekanligi ko'rsatilmaydi. Muallif ularni izohlashda ayrimlarining aniq manzilini keltirish barobarida yoki faqatgina toponimni qayd etib, "bir yer nomi", "bir joy ismi" degan ma'lumot bilangina chegaralanadi: *Manqishlag'* – o'g'uz o'lkalarida bir yerning nomi (III, 107); *Aq saj* – bir joyning ismi (I, 73); *Ala jig'ach* – chegaraga yaqin bir joyning ismi (I, 73); *Azg'ish* – bir joyning nomi (I, 83); *Aruq-turuq* – Farg'ona bilan Qashg'ar o'rtasidagi balandlik bir joyning nomi (I, 63); *Üränj* – Rum viloyati yaqinida, shimoliy chegarasidagi bir joy nomi (I, 107); *Ashchan* – Xitoyga borishdagi qo'noq qo'nib o'tiladigan bir joy ismi (I, 110); *Ötükän* – tatar sahrolaridagi bir yerning nomi, uyg'urlarga yaqindir (I, 110); *Aramut* – bir joy ismi (I, 110); *Suwlag'* – bir joy nomi (I, 308); *Tarim* – Uyg'ur chegarasida Kuja yaqinidagi bir joy nomi, uni *Ismi Tarim* deyilar (I, 266); *Xuzar* – turk yurtidagi bir joy ismi (I, 276); *Qara senir* – Barsag'an o'lkasidagi bir joy nomi (III, 155) kabi.

Ba'zi geografik obyektlarning manbada birdan ortiq nom bilan yuritilishi qayd etiladi va muallif ularning boshqa nomlarini ham ko'rsatib o'tadi: *Udun* – *Xo'tan* shahrining nomi; Xo'tanda turuvchilarga ham *udun* deyilar (I, 69); *Kösän* – *Ko'cha* degan shaharning boshqa bir ismi. U uyg'urlarning chegarasidir (I, 272); *Sajram* – *Oq shahar* ham deb ataladigan, *İspijab* deb ham ataladigan shahar nomi. Bu so'zning *Sarjam* shaklidagi talaffuzi ham bor (III, 122); *Tawg'ach* – *Mochin* mamlakatining oti. Bu mamlakat Chindan to'rt oylik yo'l uzoqligidir. Chin aslida uchta: 1) Yuqori Chin – bu Sharqda bo'lib, bunga *Tawg'ach* deyishadi; 2) O'rta Chin, buni *Xitay* deyishadi; 3) Quyi Chin, buni *Barxan* deyishadi va u Qashg'ardadir. Lekin hozir *Tawg'ach* – *Mochin*, *Xitoy* – *Chin* deb yuritiladi (I, 302); *Qarachuq* – *Forob* shahrining nomi. Bu o'g'uzlar mamlakatining nomi (I, 321); Ba'zilar butun Maveraunnahri turklar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U *Jankanddan* boshlanadi. Uning bir oti *Dizrujindir* (III, 101); *Atluq* – *Tiroz* (Avliyoota yaqinidagi bir shahar ismi). *Tiroz* – "Mu'jam ul-buldon" asarida Avliyoota deb ko'rsatilgan. Mahmud Koshg'ariy izohiga ko'ra, *Tirozning* asl oti *Talodir*. U ikkita edi: *Ulug' Talos*, *Kichik Talos*. Asarda bu izoh bir yerdagina berilgan, qolgan yerlarida *Tiroz* deb ataladi. *Talas* – *Tiroz* ismi bilan mashhur bo'lgan shahar. U ikkita: *Ulug' Talas*, *Kämi Talas*, ikkinchisi musulmon chegarasidadir (I, 246); *Ordu* – *Bolasog'un* yaqinidagi bir shahar; shuning uchun *Bolasog'un Quzordu* ham deyiladi (I, 101).

"Devonu lug'otit turk" asarida shaharlarga kim asos solgani yoki kim tomonidan barpo etilgani haqidagi ma'lumotlar bayon etiladi: *كشمير Kashmīr* – turk mamlakati chekkasidagi bir shahar. Uni Xudo yorlaqagur Sulaymon payg'ambar qurgan edi (I, 304); *برجق Barjuq* – Alp Erto'nga bino qilgan shahar. Buxtun Nassar o'g'li Bayzanni shu shaharga qamagan edi (I, 309); *قاز Qaz* – Alp Erto'nga qizining nomi. *قزوين Qazvīn* shahrini shu qurgandir (III, 100); U viloyatda beshta shahar bo'lib, u yerning aholisi g'irt kofirlar va nihoyatda mohir otuvchilardir. U shaharlarni *Zulqarnayn* bino qilgan. Bular *سلمى Solmi*, *قوچو Qoju*, *جانبالیق Janbaliq*, *بئکی بئکی Janjibaliq* shaharlaridir (I, 92-93).

Ushbu guruhga kiruvchi toponimlarning ba'zilari antropotoponim xarakterda bo'lib, joy shaharga asos solgan kishilarning ismi bilan atalgan: *بئکو Junu* – *بارمان Barman* shaharchasidan oqib o'tadigan katta bir daryo nomi. Bu daryo bo'yiga Alp Erto'nganing *Barman* degan o'g'li shahar qurgan edi. Shahar ham unga nisbat berilib, uning nomi bilan ataladi (III, 244); *Zulqarnayn* turklar yurtiga qarab yo'l olgan vaqtlarda turklar shohi *شو Shu* nomli yosh bir odam edi. *Balasog'un* yaqinidagi *شو Shu* shahrini mazkur shoh fath qilgan, qurdirgan ekan (III, 273); *برسغان Barsg'an* – Alp Erto'nga o'g'lining nomi. *Barsg'an* shaharini bino qilgan shudir (III, 276).

Shu bilan bir qatorda manbada toponimlarning talaffuzi bilan bog'liq masalalarga ham e'tibor qaratiladi. Mahmud Koshg'ariy ularning qanday o'qilishi to'g'ri ekanligi yoki xalq ichida qaysi shakldagi talaffuzi mavjud ekanligi haqidagi mulohaza va ma'lumotlarni bayon etadi: *Shanchu* – yuqori Chin yo'lidagi bir shahar *شانجو Shanchu* ش (sh)dan keyingi "a"ni cho'zib o'qish yaxshi (I, 280); *Üränj* – Rum viloyati yaqinida, shimoliy chegarasidagi bir joy ismi. Bu so'zning *ورنک varanj* tarzida o'qilishi yaxshiroq (I, 107); *Sabran* – o'g'uz shaharlaridan biri. Odamlar arabcha *ص (sod)* harfi bilan *صبران Sabran* deb talaffuz qiladilar. Holbuki, turk tilida *ص (sod)* yo'qdur (I, 291); *Sajram* – *Oq shahar* ham deb ataladigan, *İspijab* deb ham ataladigan shahar nomi. Bu so'zning *سریام Sarjam* shaklidagi talaffuzi ham bor (III, 122).

Toponimlar tadqiqida ularning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, ilmiy etimologik tahlil til tarixiga, lahja va shevalarga, tarixiy manbalardagi

ma'lumotlarga murojaat qilish hamda dalillarni turli yo'llar bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi [4, 105]. Asarning toponimika uchun yana bir qimmatli tomoni unda bir qancha nomlarning etimologiyasiga oid fikrlarning berilishidir. Ushbu manbadagi toponimlar etimologiyasi haqida S.Qorayev shunday deydi: "Ma'limki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o'rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur" [3, 301]. Shu ma'noda tarixiy toponimlarni tadqiq etishda ushbu manbaning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Asarda *Beshbaliq*, *Jani baliq*, *Ordukänd*, *Özkänd*, *Sämiz känd (Samarqand)*, *Tärkän (Toshkent)*, *Arg'u*, *Quzordu*, *Quz ulush*, *Üzükend*, *Qazvin*, *Barsg'an*, *Shu* singari tarixiy nomlarning kelib chiqishi haqida quyidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin:

بلق baliq – johiliya davridagi turklar va uyg'urlar tilida shahar. Uyg'urlarning eng kata shaharlarga *Beshbaliq* deyilishi shundandir. *بیشبلیق Beshbaliq* – besh shahar demakdir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga *یئکیبلیق Jani baliq* – yangi shahar deyдилar (I, 254).

کند känd – shahar. Bundan olinib, Koshg'ar *اردوکنند Ordukänd* – "xon turadigan shahar" ma'nosida qo'llanadi. Chunki bu shaharning havosi yaxshi bo'lgani uchun Alp Erto'nga shu yerda turar edi (I, 233).

کند känd – o'g'uz va ularga yaqin turuvchilar tilida "qishloq". Ko'pchilik turklar nazmida "shahar"dir. Shuning uchun Farg'onani *اوزکنند Özkänd* – "o'z shahrimiz" deyдилar. Samarqandni kattaligi uchun *سمزکنند Sämiz känd* – "semiz shahar" deyдилar. Buni forslar *سمرقند Samarqand* tarzida qo'llayдилar (I, 233-234).

ارغو arg'u – ikki tog' orasi; Tiroz va Bolasog'un orasidagi yerlarga ham *ارغو Arg'u* deyдилar. Chunki u "ikki tog' orasida"dir (I, 103).

اردو ordu – shoh turadigan shahar; o'rda. Shuning uchun Qashqarni *اردوکنند Ordukänd* deyдилar, ya'ni "shohlar turuvchi shahar" demakdir (I, 101).

ترکن Tärkän – Shosh [Toshkent]ning nomi. Uning asli Tashkand bo'lib, "toshdan qurilgan shahar" demakdir. Abu Bakr Qaffol Shoshiy shu shahardandir (I, 295).

الوش ulush – qishloq (chigilcha); Bolasog'un aholisi va ularga yaqin yashovchi arg'unlilar tilida "shahar" demakdir. Shuning uchun Bolasog'un shahrini *قوزاولوش Quz ulush* ham deyдилar (I, 61).

ازو uzu – uyum, tepa; *قۇمۇزۇ qum uzu* – qum uyumi, tepa. Arg'ular shahrini *ازوکنند Üzükend* deyish ham shundandir (I, 76).

قاز Qaz – Alp Erto'nga qizining nomi. *قازوین Qazvin* shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli *قاز اوینی qaz ojini* – g'oz o'ynaladigan joy demakdir. U shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi (III, 100-101).

"Devonu lug'otit turk" leksikasi toponimika uchungina emas, balki umuman til tarixi, dialektologiya sohalari uchun ham bitmas-tuganmas xazinadir. Xususan, asarda toponimlar tarkibida qatnashadigan bir qancha geografik atamalar ham keltirilgan bo'lib, ularning aksariyati bugungi kunda eskirgan va yana bir qanchasi iste'moldan butunlay chiqib ketgan hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ularning juda ko'pchiligini hozirda mavjud tarixiy joy nomlari tarkibida saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Ayni paytda manbadagi bunday geografik terminlarni o'rganish joy nomlari tarkibini aniqlash va ma'nosini izohlashda kalit vazifasini bajaradi: *art* – dovon; *qarqag'* – qaqroq joy; *qarshi* – shoh qasri; *qapg'a* – tog' darasi; *kütki* – tepalik; *ast* – tor yo'l, tor ko'cha; *onur* – o'ngur; *g'or*; *otrug'* – orol; *öz* – dara, tog'lardagi vodi; *quz* – quyosh tushmaydigan joy; *qol* – qiyalik; *öguz* – daryo; *ashaq* – tog' etagi; *to'z* – to'g'ri yer; *tajiz* – baland yer; *alin* – tog'ning baland tomoni; *üyük* – tepalik; *uzu* – uyum, tepa; *baqu* – tepa, balandlik; *ashu* – qizil tuproq; *jajlag'* – yozda turiladigan yer; *og'rug'* – soyning kesilishi, uzilishi; *arg'u* – ikki tog' orasi; *jazi* – tekis maydon; *alachu* – chodir, kapa; *äjäkü jer* – tog'ning o'rtasidagi yer; *sarg'an jer* – sho'rxok yer; *qazg'an* – o'nqir-ch'o'nqir, seryoriq yer; *eziglik* – balandlik, adir; *qir* – yassi tog', qir; *baldir* – tog' burni; *chag'ir* – tor va kichik yo'l; *tarmut* – tog'larning tepalik va soyliklari; *qoj* – vodiyning tekislik joyi; *jar* – jar; *qaq* – ko'lmak, to'plangan suv; *to'po'* – tepa; *tezhinch* – tog'larning burilish joyi; *aziz* – baland yer; *ahsaq* – tog' etagi kabilar.

Har bir hududning joy nomlari boshqa hudud joy nomlaridan o'ziga xos farqli xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimiyasida ham etnotoponimlar, ya'ni urug'-qabila nomlari asosida vujudga kelgan joy nomlari salmoqli qismni tashkil etadi. Etnotoponimlar tarkibidagi leksika ham qadimiy bo'lib, ularning ma'nolari bugunga kelib unutilgan.

TILSHUNOSLIK

Toponimika uchun "Devonu lug'otit turk" asarining yana bir ahamiyatli tomoni unda juda ko'plab etnonim va etnotoponimlarning keltirilishidir. *Turk* (shahar), *Uyg'ur* (viloyat), *Yag'ma* (qishloq nomi), *Yamak* (cho'l nomi), *Arg'u* (shahar), *Aramut* (joy nomi), *Kenjak sangir* (shahar) kabi. Shu bilan bir qatorda hozirda mavjud etnotoponimlar tarkibidagi etnonimlarning unutilgan ma'nolarini manba leksikasi oraqli aniqlash mumkin. Masalan, O'zbekiston toponimiyasiga oid *Quva* (quba – 'qo'ng'ir rangli ot'), *Uychi*, *Uychilik*, *Uychichorbog'* (ud/uj – 'sigir'), *Ko'ropa*, *Ko'rpanali*, *Ko'rapasoy*, *Ko'rpaqishloq*, *Ko'rpacha*, *Yangiko'ropa* (körpä – 'yangi tug'ilgan qo'zi'), *Munduz* (munduz – 'yo'rg'asi bor ot', 'chopishda tengi yo'q ot'), *Oqbo'yra* (bug'ra – 'erkak tuya'), *So'qoq* (soqaq – 'sayg'oq', 'oq kiyik') singari etnotoponimlarning ma'nolarini P.B.Lurye, S.Qorayev, T.Nafasov, A.Ergashev singari toponimshunos olimlar asarda keltirilgan ma'lumotlar orqali izohlaganlar [3, 8, 9, 10].

Toponimlar tadqiqida ularning yasalishi, tuzilishi va modellari bilan bog'liq masalalarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki toponimlarning lingvistik tahlili tilimizda mavjud bo'lgan ko'plab grammatik elementlarning evolyutsiyasini, taraqqiyot bosqichlarini, ularning yasalishi bilan bog'liq bo'lgan qadimgi usullarni aniqlashga yordam beradi [5, 37]. Hozirda mavjud turkiy toponimlarning asosiy qismi ikki va uch takibiy qismdan iboratdir. Manbada uchraydigan toponimlarning aksariyati esa bir asosli sodda toponimlardir: *Tawg'ach*, *Ujg'ur*, *Sitgün*, *Ila*, *Udun*, *Xo'tan*, *Balu*, *Sabran*, *Shu*, *Shash*, *Alush*, *Azig'*, *Abul*, *Balu*, *Jalg'a*, *Jafg'u*, *Ala*, *Qizil*, *Jag'ma*, *Chigil*, *Barxan*, *Kösän*, *Qum*, *Ko'cha*, *Kashmir*, *Solmi*, *Qoyu*, *Qujas*, *Alg'uq*, *Qarg'alig'*, *Atluq*, *Shanchu*, *Sajram*, *İspijab*, *Barjuq*, *Barman*, *Arg'u*, *Xitay* va boshqalar.

Ikki asosli qo'shma toponimlar asarda ko'p uchramaydi. Ular asosan toponimik indikatorlar bilan shakllangan nomlar hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariy asarda toponimik indikatorlarning ma'nosini izohlash bilan bir qatorda ular qatnashgan qo'shma toponimlarga bir qancha misollar ham keltirib o'tadi: 1) **qishlag'** – 'qishlanadigan joy' (*Manqishlag'*); 2) **balıq** – 'shahar' (*Janjbalıq*, *Beshbalıq*, *Janjıbalıq*); 3) **känd** – 'shahar' (*Üzükend*, *Semizkänd*, *Tashkand*, *Jankand*, *Tonkän*, *Özkänd*, *Ordukänd*); 4) **ulush** – 'qishloq', 'shahar' (*Quz Ulush*); 5) **ordu** – 'o'rda', 'shahar' (*Quzordu*, *Ordukänd*); 6) **tajiz** – 'yaylov' (*Tajzan tajiz*) 7) **art** – 'dovon' (*Badalart*, *Yafg'uart*); 8) **öguz** – 'daryo' (*Iki öküz*) kabi.

Uch asosli toponimlar manbada juda kamchilikni tashkil etadi: *Tarig' art tajiz*, *Jiz ew tajiz*.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari XI asr va undan oldingi asrlarga oid bo'lgan onomastik birliklarni, jumladan, toponimik birliklarni o'zida jamlagan benazir manbadir. Asarda qo'llangan toponimlarni tadqiq etish ajdodlarimizning o'sha davrdagi obyektlarni nomlash an'anasi bilan bog'liq qarashlarini, shuningdek, qadimgi turkiy tilga oid ko'plab toponimik terminlar ma'nosi hamda izohini o'rganish imkonini beradi. Nafaqat o'sha davrdagi, balki bugungi kunda ham mavjud bo'lgan tarixiy toponimlar ma'nosini o'rganishda bu asar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Берматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва, 2011.
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
4. Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2006.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
6. Маҳмуд Кошгарий. Девону луғоти-т-турк. I-III жилд. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2016.
7. Roziqova G.Z. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llangan ot leksemalarning funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari. – Farg'ona, 2021.
8. Нафасов Т. Қашқадарё кишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009.
9. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: дисс. канд. филол. наук. – СПб.: Институт востоковедения РАН, СПб филиал, 2004.
10. Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2012.